




МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҲ

Илимий-методикалық журнал



№ 3/4 2025



гуманитарные науки
естественные науки
технические науки

ISSN 2181-7138

МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2025

3/4-сан

*Ўзбекистон Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқаргы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гууалық берилген.*

Нөкис



Ирисбоева Ё. Ў. Олий таълим самарадорлигини оширишда технологик ёндашув тамойиллари	146
Turakulov B.N. Ekopsixologik kreativ qobiliyatini rivojlantirishning psixologik omillari	154
Xalmatova D. A. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni kompetensiyaviy yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari	158
Begmatova D. M. Jahon miqyosida ta'lim jarayoni subyektlarida madaniy immunitetni shakllantirish tendensiyalari	165
Xalmuxamedova M.A. Naqshbandiya tariqati vositasida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning nazariy-pedagogik asoslari	171
Xudayberganova M.S. Biologiya darslarida innovatsion ta'lim metodlaridan foydalanishning ahamiyati	177
Abdurazaqova F. K. Shaxs kamoloti ijtimoiy-biologik hodisa va pedagogik jarayonning ob'ekti hamda sub'ekti sifatida uzluksiz ta'lim tendensiyalari kontekstida	181
Abdumurodova D.A. 5-7 sinflarda ingliz tilidagi muloqot matnlari vositasida o'quvchilarni o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini tarbiyalash	187
Sindarova M. A., Temirov J. CEFR asosida arab tili o'rgatuvchi o'qituvchilar malakasini oshirish: tajriba va istiqbollar	192
Usmonova M.S. Biologiyani o'qitishda mustaqil ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan pedagogik talablar	196
Ro'zmetova M. M. O'quvchilarda genderlik asosida intellektual liderlikni rivojlantirish	201

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХИЙЛИК ТИЙКАРЛАРИ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Абдумажидова Ҳ. Марказий Осиё мамлакатлари модернизациялашув ва интеграциялашувнинг, ижтимоий-сиёсий муносабатлар фаоллашувига таъсири	206
Xalimbetov Yu. M. Xorijda va o'zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi	213
Ulug'ov J.N. Tarix darslarida milliy qadriyatlarni shakllantirishda pedagogik yondashuvlar	217
Allayarov D.I. Mavloni Jaloliddin Rumiyni sofilylikda o'rni va uning maydonga kelishi	221
Karimova M.Z. Tarix fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati	229
Юлдашева Г.Ш. Роль женщин-учёных в изучении флоры Центральной Азии (1920–1970 гг. XX века)	233

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Muratova B B. Tasodifiy miqdorlar va ularning taqsimot qonunlarini talabalarga interaktiv metodlar yordamida tushuntirish	239
Jamolova Sh.Q., Abdiyaxmidova S.J. Bo'lajak fizika fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda dasturiy vositalardan foydalanishning afzalliklari	244
Зоинова А.И. Исследование антикоррозионного смазывающего покрытия на основе низкомолекулярного полиэтилена	250
Камалов А.Б. Развитие познавательной активности студентов в процессе проблемного изучения физики	256

БАСЛАҒЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТАРБИЯ

Ajiniyazova A.P. Baslawish klass oqiwshilariniñ taza jazıw kónlikpelerin qalıplestiriwdiñ áhmiyeti	262
Annayeva M.R. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish-bilish faollikni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	267
Tajbenova D.K. Interakt usuli va interaktiv metodning mazmuni va ilmiy asoslari	271
Turimbetova Z. B. Hikoyalash va so'zni tilga chiqarishning lingvistik va pedagogik ahamiyati	275



NAQSHBANDIYA TARIQATI VOSITASIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Xalmuxamedova M.A.
CHDPU “Texnologik ta’lim”
kafedrası katta o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: kompetentlik, qadriyatlar, faoliyat, kamolot, xilvat, shuhrat, shariat, tariqat.

Ключевые слова: компетентность, ценности, деятельность, совершенство, уединение, слава, катастрофа, шариат, тарикат.

Key words: competence, values, activity, perfection, solitude, glory, sharia, tariqa.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada Naqshbandiya tariqati vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning nazariy-pedagogik asoslari haqida fikrlar yoritilgan.

РЕЗЮМЕ:

В статье рассматриваются теоретические и педагогические основы повышения профессиональной компетентности будущих учителей посредством Накшбандийского тариката.

SUMMARY:

The article examines the theoretical and pedagogical foundations of improving the professional

Shiddat bilan rivojlanayotgan sohalar qatorida ta’lim tizimida ham tub o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Ta’lim tizimidagi barcha islohotlar kelajak avlodni bilimli, madaniyatli, ma’naviyatli etib tarbiyalashga qaratilgan. Ushbu islohotlarning asosiy ijrochisi, barcha yangilik va islohotlarni amalga tatbiq etuvchi shaxs bu pedagogdir. O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturida asosan O‘zbekistonda ta’lim tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari belgilab olindi. Qo‘yilgan maqsadlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashga va ularni kasbiy kompetentligini oshirishga katta ahamiyat berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot

strategiyasi” to’g’risidagi farmonida “Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o’rganish va keng targ’ib etish” masalasiga alohida urg’u berilgan.

Kasbiy kompetentlikni shakllantirishning zamonaviy metodik tamoyillaridan biri — har bir bilim, ko’nikma va faoliyatni muayyan qadriyatlar bilan uyg’unlashtirishdan iborat. Shu asosda Naqshbandiya ta’limotida ilgari surilgan qadriyatlar zamonaviy pedagogik amaliyotda kompetent pedagog shaxsni yetishtirish uchun metodik asos sifatida xizmat qiladi.

Millatning o’z qadriyatlarini o’rganishi, tahlil qilishi va keng ommaga yoyishi tarixiy rivojlanish jarayonida o’tmishdan kelajakka tomon harakatini tahlil qilishga imkon yaratadi.

Milliy qadriyatlar:

- kishilarning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy birligini ta’minlaydigan etnik makonda shakllanadi, rang-barang tarzda, turli shakllarda namoyon bo’ladi, kishilarning ongiga, hayot tarziga o’ziga xos tarzda tasir qiladi;

- kishilarning o’zaro munosabatlarida, ijtimoiy faoliyatlarida ko’zga tashlanib turadi hamda ana shu munosabat, faoliyat, maqsad, ehtiyoj va intilishlar uchun ma’naviy asos bo’ladi;

- moddiy, ma’naviy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarda muayyan natija sifatida yuzaga kelishlari, kishilar uchun zaruriyat sifatida o’ziga xos ahamiyat kasb etishlari, ularga foyda keltirishlari ham mumkin;

- ijtimoiy rivojlanish jarayonida o’zgarib, takomillashib rang-barang jihatlar avloddan-avlodga o’tadi, meros qoladi.

Buyuk allomalarimiz, millatimizning faxri bo’lgan olimu-ulamalarimizning hayot yo’llarini o’rganadigan bo’lsak, ularning ma’naviy kamoloti, ilm olishga bo’lgan fidoiyligini, tanlagan sohalariga bor vujudlari bilan o’zlarini baxshida etganligini ko’rishimiz mumkin. Zero ularning ko’pchiligi dunyoviy bilimlardan oldin diniy bilimlarni egallaganlar. Masalan dunyoga mashhur Abu Ali Ibn Sino 10 yoshida Qur’oni Karimni yoddan bilgan va matematika, falsafa, tibbiyotga oid asarlar bilan birga juda ko’p diniy asarlar yozganlar. Nega endi hozir biz diniy bilimlar: shariat, tariqat haqidagi bilimlarni o’rganishni va ularni talabalarga yetkazishni lozim topmaymiz?

Hozirgi kunda dunyoning juda ko’pgina mamlakatalarida Naqshbandiya tariqati chuqur o’rganib kelinmoqda. Lekin afsuski bizning mamlakatimizda o’zimizning yurtimizdan chiqqan shunday ulug’ avliyo haqidagi ma’lumotlarga juda kam insonlar egadirlar. Buning sababi ushbu ma’lumotlar keng jamoatchilikka va uning bir bo’lagi bo’lmish bo’lg’usi pedagoglarga o’rgatilmayotganidir. Chunki bir oddiy inson olgan bilim ungagina tegishli

bo'ladi, lekin o'qituvchining bilimidan yuzlab va minglab o'quvchilar bahramand bo'ladilar. Kelajak avlodni tarbiyalash eng avvalo bo'lg'usi pedagog, ya'ni talabani tarbiyalashdan boshlanadi. Talaba oliy o'quv yurtida kasbiy bilimlarini egallash bilan bir qatorda ma'naviyatini oshirishi lozim, bu esa dunyoviy bilimlar bilan birga diniy bilimlarni ham egallashni taqozo etadi.

Talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda ularga qadriyatlar orqali yondashuv o'quv jarayonini yaxlit ifodalash va uni to'liq tasavvur etish imkonini beradi. U ta'limiy, pedagogik, ijtimoiy faoliyat qirralarini ochishda qulaylik tug'diradi. Jumladan naqshbandiya tariqatida mehnat qilishning foydasi, inson tarbiyasida mehnatning ahamiyati, har bir inson kasb-hunarli va bilimli bo'lishi, turli ilmlarni qadrlash, halol, pok yashash masalalari ta'kidlab o'tilgan. Shuningdek, har bir ishni sidqidildan bajarish, jamiyatga, xalqqa foydasi tegadigan, komil inson darajasiga erishish tariqatning asosiy maqsadidir.

Naqshbandiya qadriyatlari nafaqat individual ruhiy kamolot uchun, balki jamoa bilan ishlashda, o'quvchilarga ta'sir ko'rsatishda, ularning ma'naviy tarbiyasini shakllantirishda ham kuchli motivator sifatida xizmat qiladi. Aynan shuning uchun bu qadriyatlarni zamonaviy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy va ma'naviy barkamollikni uyg'un holda rivojlantirish imkonini beradi.

Abdulxoliq G'ijduvoni "xilvat eshigini yop, suhbat eshigini och", Bahouddin Naqshband esa "Yo'limiz suhbat yo'lidir, xilvatda shuhrat, shuhratda ofat bor" deganlar.

"Nishopur shahridagi suhbatlarda Bahouddin bir muridning savoliga bunday javob qilgan:

-Bizning haqqa yetishish tariqimiz (yo'limiz) o'zaro suhbat bilan bo'lur. Bizda xilvatlanishinlik bo'lmas.

Bahouddin Naqshband shu tariqa olamdagi barcha odamlarning bir-birlari bilan yaqinlashib, do'st tutinishlarini, bir jamoat bo'lib yashashlarini, birgalikda xayriyat-yaxshi ishlarni amalga oshirishlarini orzu qilardi. Payg'ambar yo'lidan borgan Hazrat Bahouddinning buyukligi ham shunda edi.

Xoja Bahouddin shariat qonun-qoidalariga qattiq yopishib olmagan. U xurofotni qoralash bilan birga, yangi bilimlarni o'rganishga intilgan".

Naqshbandiya ta'limoti insonning ma'naviy va axloqiy kamolotini shakllantirishga qaratilgan qadriyatlar tizimiga asoslanadi. Bu ta'limotda shaxsning o'zini tarbiyalash, jamiyatga sadoqat bilan xizmat qilish, halol mehnat va doimiy ruhiy poklikka intilish kabi fazilatlar asosiy o'rin egallaydi. Naqshbandiya tariqati tarafdorlari hayotda shariat talablariga rioya qilish,

halollikni saqlash, bag'rikenglik va fidoyilik ruhida faoliyat yuritishni asosiy qadriyat sifatida ko'radilar. Aynan shu qadriyatlar nafaqat shaxsiy kamolot, balki jamiyat taraqqiyoti va yosh avlod tarbiyasida ham hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Naqshbandiya ta'limotida shakllangan qadriyatlar tizimi nafaqat nazariy g'oya sifatida, balki amaliy faoliyatda, xususan, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Halollik, fidoyilik, xizmat va poklik kabi qadriyatlar pedagogik jarayonning ichki mohiyatini belgilovchi asosiy mezonlar sifatida namoyon bo'ladi. Har bir qadriyat o'qituvchi shaxsining kasbiy mahorati, tarbiyaviy ta'sirchanligi va jamiyat oldidagi mas'uliyatini mustahkamlovchi amaliy mezonlarga aylanadi. Shu sababli, Naqshbandiya qadriyatlarini pedagogik amaliyotga integratsiya qilish, bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy barkamollik va kasbiy kompetentlikni uyg'un shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Pedagogning kasbiy kompetentligini oshirishga juda ko'p faktorlar ta'sir ko'rsatadi. Ushbu faoliyat pedagogning bevosita o'quvchi bilan bo'lgan munosabati, bilim berish, tarbiya berish, o'zaro til topishish, o'zining bilim va ko'nikmalarini o'quvchiga yetkaza olish xususiyatlaridan tashkil topadi.

Tarbiya berish uchun pedagogning o'zi ma'naviy barkamol bo'lishi lozimdir. Bu borada bo'lg'usi pedagoglarga naqshbandiya tariqati ilmiy merosini o'rganish juda katta yordam beradi. Bunga ushbu ta'limotning asrlar davomida bizgacha yetib kelgan tarbiya, ma'naviy yetuklikka erishish, komil inson darajasiga yetish, bajarayotgan ishiga mas'uliyat bilan qarash kabi sifatлари orqali erishish mumkin.

“Komillikning oliy belgisi Haq yo'lidan borib xalqqa foyda keltirishdir. Kishi o'z so'zi, amaliy ishlari, niyati bilan qanchalik odamlarga na'f keltirsa, yomonlarni to'g'ri yo'lga solsa, Haq yo'lida fido bo'lsa, u shuncha komildir.”

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda qadriyatlar muhim asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Naqshbandiya ta'limotida ilgari surilgan halollik, fidoyilik, xizmat va poklik kabi qadriyatlar o'qituvchi shaxsiyatining rivojlanishida nafaqat nazariy, balki amaliy yo'nalish beruvchi tamoyillarni tashkil etadi. Kasbiy kompetentlikni shakllantirish mexanizmlari ana shu qadriyatlarni shaxsga singdirish, ularni kundalik pedagogik faoliyatga tatbiq etish va natijada o'qituvchi shaxsining bilim, ko'nikma va ma'naviy fazilatları uyg'un rivojlanishini ta'minlashni ko'zda tutadi. Shu sababli, qadriyatlar asosida kasbiy kompetentlik shakllantirish mexanizmlarini aniqlash va izchil qo'llash zamonaviy pedagogik ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda.



Naqshbandiya ta'limotining asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan "dil ba yor, dast ba kor" – ya'ni "dil Allohda, qo'l mehnatda bo'lsin" — inson hayotida ma'naviy va amaliy faoliyat uyg'unligini ta'minlashni anglatadi. Bu tamoyil o'qituvchilik kasbi uchun ham beqiyos ahamiyatga ega bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentlik va ma'naviy barkamollikni bir butun sifatida shakllantirish zaruratini belgilab beradi.

"Dil ba yor" talqini o'qituvchining qalbi doimo sof niyat, halollik, bag'rikenglik va fidoyilik kabi yuksak qadriyatlar bilan yo'g'rilgan bo'lishini anglatadi. "Dast ba kor" esa o'qituvchining o'z kasbiga mas'uliyat bilan, fidokorona yondashib, harakat va mehnatini ilmiy asosda samarali tashkil etishini bildiradi. Shu ma'noda, bo'lajak o'qituvchilar o'z kasbiy faoliyatida faqat bilim berish bilan kifoyalanmay, balki shaxsiy namunasi bilan ham o'quvchilarning ruhiy-ma'naviy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kerak.

Mazkur tamoyil asosida talabalarda kasbiy va ma'naviy uyg'unlikni shakllantirish ularni shaxsiy maqsadlar bilan jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtirgan holda faoliyat yuritishga o'rgatadi. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini chuqurroq va barqarorroq shakllantirishga xizmat qiladi.

Naqshbaniya tariqati va unda insonni komillika yetaklovchi kuch sifatida halol pok mehnat bilan kun ko'rish, kasb-hunar o'rganish, barcha sharoitda haqgo'y va kamtar bo'lish kabi hislatlarini talabalar ongiga singdirishimiz lozimdir. Bu ma'lumotlar darsdan tashqari vaqtlarda yoki boshqa fanlarning ichida olib borilishi, shuningdek maxsus ma'naviy–ma'rifiy tadbirlar o'tkazish yo'li bilan ham talabalarga yetkazilishi mumkindir.

Bo'lg'usi texnologik ta'lim o'qituvchisini kasbiy kompetentligini oshirishda asosiy urg'uni uning kasb-hunar egallashi, ilm olishga va ma'naviyatini oshirishga qaratishimiz lozimdir.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va baholash zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik darajalari va ular asosida belgilangan mezonlar - bilim, ko'nikma va qadriyatlar—o'qituvchining professional yetuklik darajasini kompleks ravishda aniqlash imkonini beradi.

Naqshbandiya ta'limotida shakllangan halollik, xizmat va ixlos qadriyatlari asosida kasbiy kompetentlik mezonlarini boyitish o'qituvchilarning nafaqat bilim va amaliy faoliyat, balki ma'naviy barkamollik va axloqiy fazilatlar asosida rivojlanishini ta'minlaydi. Shunday qilib, kasbiy kompetentlik darajalarini aniq belgilash va baholash ko'rsatkichlarini tizimlashtirish bo'lajak



o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanish istiqbollari belgilash, ularni zamonaviy jamiyat talablariga mos holda tayyorlash imkonini beradi.

Diniy qadriyatlar yolg'iz diniy qoidalar, ko'rsatmalar, tamoyillardan iborat bo'libgina qolmay, kishilar o'rtasida ma'naviy ahloqiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa munosabatlarning ham ifodasidir. Bahouddin Naqshband yosh avlodning mehnat tarbiyasiga to'xtalar ekan, kasb-hunar orqali halol luqma topish lozim ekanligini alohida ta'kidlaganlar. Naqshbandiya tariqatining asosiy g'oyasi insonni yuksaklikka eltuvchi sifatida aql-idrok va mehnat yotadi.

Erkin fikrlaydigan, o'z faoliyati natijalarini ko'ra oladigan, dinamik o'zgaruvchan dunyoda shaxsni tarbiyalaydigan pedagoglarni yetishtirish uchun biz albatta zamonaviy texnologiyalar bilan birga boy ma'naviy merosimizdan ham foydalanishimiz lozim. Zero malakali va o'z ishini ustasi bo'lgan, ijodiy fikrlaydigan, raqobatbardosh kadrlarga talab hamisha kuchli bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kiyom Nazarov "Qadriyatlar falsafasi" (Aksiologiya) T-2004.c-4
2. Naqshbandiya tariqati vositasida texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish Monografiya. - T.: «MALIK PRINT CO», 2022. UDK: 373: 159.9 KBK: 74.00
3. Сластенин В.А. Профессиональная готовность учителя к воспитательной работе: содержание, структура, функционирование // Профессиональная подготовка учителя в системе высшего образования. - М.:МГПИ им. В.И. Ленина, 1982. - 220 с.
4. Xalmuxamedova M. A. Naqshbandiya tariqatida kasb-hunar egallashga da'vat/ Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021 ISSN: pp. 2181-1385
5. Najmiddin Komilov. Tasavvuf & Najmiddin Komilov bilan suhbatlar (Video) Muallif Adib: Tasavvuf tarixi, va adabiyoti. 25.04.2018 йил.